

## **“2022-2024 yillarda gaz ta’minoti tizimini modernizatsiya va rekonstruksiya qilish” investitsiya loyihasi**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 06-iyuldagi **PQ-307**-sonli “2022-2026 yillarda O‘zbekiston Respublikasining innovatsion rivojlanish strategiyasini amalga oshirish bo‘yicha tashkiliy chora-tadbirlar to‘g‘risida” gi hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022 yil 5 avgustdagi “Respublika iste‘molchilarining tabiiy va suyultirilgan gaz ta’minoti tizimining samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi **430-son** qarorlarida Respublika gaz ta’minoti tizimini modernizatsiya va rekonstruksiya qilish vazifasi belgilan.

Mazkur vazifa va topshiriqlarni belgilangan muddatda bajarish maqsadida “Hududgazta’minot” AJ tomonidan “2022-2024 yillarda gaz ta’minoti tizimini modernizatsiya va rekonstruksiya qilish” investitsiya loyihasi **Konsepsiyasi** ishlab chiqildi.

Tarmoq ilmiy texnik kengashi bilan kelishilgan investitsiya loyihasi **Konsepsiyasi** O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 16 iyuldagi “Xalqaro moliya institutlari va xorijiy hukumat moliya tashkilotlari ishtirokidagi loyihalarni tayyorlash va amalga oshirish samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” **PQ-3857-son qaror** talablariga asosan kelishish uchun Xalq Deputatlari Toshkent shahar Kengashiga kiritildi. Xalq Deputatlari Toshkent shahar kengashining 2022 yil **23 avgustidagi VI-69-231-14-0-K/22-son qarori** bilan investitsiya loyihasi **Konsepsiyasi** kelishildi.

2022 yil 24-avgustda №02-26-140/6095 – son xati bilan investitsiya loyihasi **konsepsiyasi** O‘zbekiston Respublikasi Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi huzuridagi Xalqaro hamkorlik va rivojlanish agentligiga kelishi uchun yuborildi. **2022 yil 26-avgustda №01-1-1-805 – son** xati bilan investitsiya loyihasi **Konsepsiyasi** Xalqaro hamkorlik va rivojlanish agentligi tomonidan **kelishildi**.

**Loyihaning texnik iqtisodiy asoslarini (TIA) ishlab chiqish uchun texnik topshiriq** “Hududgazta’minot” AJ Tarmoq ilmiy texnik kengashi tomonidan 2022 yil 29 avgustda **ko‘rib chiqildi va tasdiqlandi** (Bayon №10).

2022 yil 16-sentyabrda №01-1-1-857 -son xati bilan **TIA ishlab chiqish uchun texnik topshiriq** O‘zbekiston Respublikasi Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi huzuridagi Xalqaro hamkorlik va rivojlanish agentligi tomonidan **kelishildi**.

2022 yil 20 sentyabrda №02-26-160/7001-son xat bilan TIA ishlab chiqish uchun loyiha tashkilotlari bilan **shartnoma rasmiylashtirish** maqsadida texnik topshiriq **“Hududgaz Komplektatsiyaga”** taqdim etildi.

### **Loyiha doirasida quyidagi ishlar bajariladi:**

- **303,6 km** gaz quvurlarini mukammal ta’irlash va rekonstruksiya qilish, 5,4 mingta gaz taqsimlash punktlarini modernizatsiya qilish, shundan 2,8 mingta yuqori bosimli ob’ektlarda telemetriya tizimini joriy etiladi;

- **232** yer osti gaz quvurlarida o‘rnatilgan elektr-kimyoviy himoyalash qurilmalari mukammal ta’irlash va rekonstruksiya qilinadi;

- **706,5 mingta** xonadonda ikki bosqichli gaz ta'minoti tizimini joriy etilishi va iste'molchilarga yetkazib beriladigan tabiiy gaz hajmlarining balansini avtomatik ravishda shakllantiruvchi dasturiy ta'minotni ishga tushiriladi;

- tizimda zamonaviy texnologiyalar joriy etilishi, jumladan 5 ta mobil laboratoriyalar, **500 ta** elektroskuterlar, **2 ta** uchuvchisiz uchish apparati (dron), georadar va masofaviy gaz detektorlari va **74 dona** yer osti gaz quvurlarining texnik holatini va gaz sizib chiqishni aniqlovchi uskunalar hamda **1 000 ta** ko'chma (portativ) gaz analizatorlarini xarid qilinishi natijasida, tabiiy gaz sizib chiqish holatlarini qisqa muddatlarda bartaraf etish imkoniyati yaratiladi;

- gaz taqsimlash stansiyasining chiqish qismi - gaz taqsimlash tarmoqlarining boshlanish nuqtasi (bo'linish chegarasi)ga yuqori aniqlikdagi ultratovushli gaz hisoblagichlari o'rnatilishi va "onlayn" monitoring qilish uchun avtomatlashtirilgan tizimlariga o'zaro integratsiya qilinadi.

Gaz ta'minoti tizimi modernizatsiya va rekonstruksiya qilish natijasida Respublika gaz taqsimlash tarmoqlarini rivojlantirish va ulardan foydalanish sohasida yagona texnik siyosatni samarali olib borish, iste'molchilarga tabiiy gazni yetkazib berishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalariga asoslangan zamonaviy boshqaruv tizimini yaratish, tabiiy gaz texnologik yo'qotishlarini qisqartirish, energiya resurslaridan oqilona foydalanishni yo'lga qo'ygan holda aholi va tadbirkorlik sub'ektlarining o'sib borayotgan ehtiyojlarini barqaror qondirish kutilmoqda.